



ISSN 2181-1571



FERGANA STATE
UNIVERSITY

**FarDU.
ILMIY XABARLAR**

**ILOVA TO'PLAM
GEOGRAFIYA**

**Scientific journal
of the
Fergana State
University**



1/2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririyanashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston) BEZGULOVA O.S. (Rossiya) RASHIDOVA S. (O'zbekiston) VALI SAVASH YYELEK (Turkiya) ZAYNOBIDDINOV S.(O'zbekiston) AXTARIYEVA R. (Rossiya)	JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya) LEEDONG WOOK (Janubiy Koreya) A'ZAMOV A. (O'zbekiston) KLAUS XAYNSGEN (Germaniya) RAKETIN O. (Rossiya)	G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston) BERDISHEV A.S. (Qozog'iston) KARIMOV N.F. (O'zbekiston) CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya) TOJIBOYEV K. (O'zbekiston) TURAYEV A. (O'zbekiston)
--	--	--

Maxsus son tahririyat kengashi

AXMADALIYEV Yu. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.d., prof.	BOYMIRZAYEV K. (O'zbekiston)	NamDU, g.f.d., (DSc), dots.
ABDUG'ANIYEV O. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.d., (DSc) dots.	YARASHEV Q. (O'zbekiston)	SamDU, g.f.d., (DSc), dots.
XOLIQOV R. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.n., dots.	NIZAMIYEV A. (Qirg'iziston)	O'shDU, g.f.d., prof.
ABDUVALIYEV X. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.f.d., (PhD)	PIRNAZAROV R. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.n., dots.
MAHKAMOV E. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.f.d., (PhD)	OTAQULOV P. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.f.d., (PhD)
MADAMINOV Z. (O'zbekiston)	FarDU, g.f.f.d., (PhD)	SHUHRATOV SH. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.f.d., dots.
DADAYEV S. (O'zbekiston)	TDPU, b.f.d., prof.	SHERMATOV M. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.n., dots.
MAHMUDOV V. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.n., dots.	SHERALIYEV B. (O'zbekiston)	FarDU, b.f.f.d., (PhD)

Muharrirlar:

Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.
Musahhihlar:
Raximov J.
Mahmudov F.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Journalal.fdu.uz

Farg'ona, 2024

Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduveiyev	
Hududiy tashkil etishning ba'zi nazariyalarida aholi omilining o'rni va ahamiyati.....	6
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov	
Landshaftlar vertikal tabaqlanishini matematik modellashtirish.....	15
Q.S.Yarashev, B.B.Yusupov	
Ekoturizim resurslardan oqilona va samarali foydalanishning ayrim masalalari (Dehqonobod tumani misolida)	22
T.J.Jumayev, Sh.B.Qurbanov, K.O.Daljanov	
Tog'li hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba'zi masalalari	30
O.T.Mirzamahmudov	
Farg'ona vodiysi adir agrolandshaftlari va ularni joylashtirish yo'llari	36
O.M.Qo'ziboyeva, Z.Sherbayeva	
Janubiy Farg'ona daryolarining suv rejimiga iqlim o'zgarishining ta'siri.....	41
G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev	
Xavfli meteorologik hodisalarining takrorlanuvchanligini baholash (Farg'ona viloyati misolida) ..	45
Sh.Z.Jumaxanov, Sh.Sh.Zoirjonov	
Aholi xulq-atvorining etnolingvistik xususiyatlarini sotsiologik so'rovlar asosida o'rganish	54
R.Y.Xoliqov	
Farg'ona vodiysi paragenetik landshaftlari o'rtasidagi geokimyoiy migratsion jarayonlarning geoekologik muhitga ta'siri	61
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov	
Landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi va ularning tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari	64
Y.I.Ahmadaliyev, O.I.Abdug'aniyev, J.G'.Eminov	
Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash.....	68
D.G'.Mo'minov, O.Q.Tobirov	
Farg'ona viloyati ekoturistik imkoniyatlarini baholashning bazi jihatlari	81
K.M.Xakimov	
Antroponomik model: milliy familiya va uning zaruriyati haqida.....	87
Y.B.Raxmatov	
Buxoro viloyatining cho'l xududlarida suvdan samarali foydalanishning geografik muammolari.....	93
R.T.Pirnazarov	
Shohimardonsov havzasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik imkoniyatlari	96
P.R.Qurbanov	
Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining sotsial jihatlari	103
H.A.Oblaqulov, Y.R.Buranov, M.Sh.Qo'ziyeva	
Navoiy viloyat aholisining dinamikasi va hududiy joylashuvi	113
Z.X.Madaminov	
Iste'mol geografiyasi fani, uning rivojlanishi, iste'mol savatchasi tushunchasi va uni tadqiq qilish	118
E.G'.Mahkamov	
Farg'ona vodiysida turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish yo'naliishlari.....	122
Z.A.Temirov	
Mehnat resurslari va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi o'rtasidagi hududiy muammolarni geografik o'rganish	128
M.M.Avezov, A.M.Elmurotova	
Kattaqo'rg'on tumanining geologik va orografik tuzilishiga umumiyl tabiiy geografik tavsif	135
M.R.Usmanov	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar	140

**TOG'LI HUDDUDLARDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH VA HUDDUDIY
TASHKIL ETISHNING BA'ZI MASALALARI**

**НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ И ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ
СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В ГОРНЫХ РАЙОНАХ**

**SOME ISSUES OF DEVELOPMENT AND TERRITORIAL ORGANIZATION OF
AGRICULTURE IN MOUNTAIN AREAS**

Jumayev Turob Jumayevich¹

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti faxriy professori, g.f.d., professor

Qurbanov Shuxrat Bekmetovich²

²O'zbekiston milliy universiteti, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasи dotsenti

Daljanov Kazakbay Ongarbayevich³

³Qoraqalpoq davlat universiteti, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasи assistanti

Annotatsiya

Maqolada tog'li hududlarda qishloq xo'jaligi rivojlanishining ayrim geografik jihatlari ko'rib chiqilgan. Tog'li hududlarda qishloq xo'jaligi tarmoq strukturasining xususiyatlari tahvil qilinib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joylashtirishni optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Аннотация

В статье рассмотрены некоторые географические аспекты развития сельского хозяйства в горных районах. Анализируются особенности отраслевой структуры сельского хозяйства горных территорий, даются рекомендации по оптимизации размещения сельскохозяйственного производства.

Abstract

The article discusses some geographical aspects of the development of agriculture in mountainous areas. The features of the sectoral structure of agriculture in mountainous areas are analyzed, and recommendations are given for optimizing the location of agricultural production.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligining tarmoq tuzilishi, tog'li hududlar, tog' dehqonchiligi, tog' bog'dorchiligi va uzumchiligi, tog' dorivor o'simliklari, tog' melioratsiyasi, tog' yaylovlar.

Ключевые слова: отраслевая структура сельского хозяйства, горные территории, горное земледелие, горное садоводство и виноградарство, горные лекарственные растения, горная мелиорация, горно-пастбищное животноводство.

Key words: sectoral structure of agriculture, mountain areas, mountain farming, mountain horticulture and viticulture, mountain medicinal plants, mountain reclamation, mountain pasture husbandry.

KIRISH

Qishloq ho'jaligi agroiqtisodiyot sohalarining fundamental, birlamchi bo'g'ini bo'lishi bilan birga, mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida muhim o'ringa ega. Buni davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda, xususan respublika Prezidentining qaror va farmonlarida agrar sektorga alohida e'tibor qaratilganida ham ko'rish mumkin. Mamlakat aholisining deyarli yarmi qishloq joylarda istiqomat qilishi, yalpi ichki mahsulotning ko'pchilik qismi aynan shu sektorga to'g'ri kelishi fikrimiz dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni 1-ilova "III. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" bo'limi 30-maqсадида "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish" belgilangan. Mazkur maqsadni amalga oshirishda tumanlarni aniq mahsulot turini yetishtirishga ixtisoslashtirish, qishloq xo'jaligida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish va sug'urtlashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish, yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming hektar maydonni o'zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish, 200 ming hektar paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hamda aholiga ochiq tanlov asosida uzoq muddatli ijaraga berish nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog'lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarini 2 baravar ko'paytirib, eksport

salohiyatini yana 1 milliard AQSh dollariga oshirish, tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish ham asosiy vazifalar qilib belgilangan. Agrologistika markazlarini rivojlantirish va zamonaviy laboratoriyalari sonini ko'paytirish, urug'chilik va ko'chat yetishtirish bo'yicha milliy dasturni amalga oshirish, nufuzli xalqaro ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetini tashkil etish, agrar sohada ilm-fan va amaliyat integratsiyasini chuqurlashtirish, aholi tomonidan tomorqalardan samarali foydalanilishi uchun sharoitlar yaratish kabilar aynan maqsad doirasida amalga oshiriladi [1].

Ta'kidlash joizki, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylashuvi va rivojlanishiga hududlarning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bevosita ta'sir ko'rsatadi. Eng avvalo, tabiiy komponentlar ichida suv, tuproq va boshqa agroqlimiy resurslarning ahamiyati katta. Shuningdek, iqlim sharoitlari - yer osti va yer usti suvlar, tuproq xususiyatlari qishloq xo'jaligining tarmoqlar va hududiy tarkibini ko'p jihatdan belgilab beradi va qishloq xo'jaligining ma'lum bir sohasini joylashtirish va rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qishloq xo'jaligini iqtisodiy geografik o'rghanishning nazariy-uslubiy asoslari xorijlik olimlar I.G.Tyunen, K.I.Ivanov, V.G.Kryuchkov, A.M.Nosonov, A.N.Rakitnikovlarning ishlarida keltirilgan. Respublikamizda qishloq xo'jaligi geografiyasiga oid ilk monografik tadqiqotlar o'tgan asrning o'talarida professorlar Z.M.Akramov va A.N.Rakitnikovlar hamkorligida olib borilgan. Ular Zarafshon havzasida tashkil etilgan kompleks iqtisodiy-geografik ekspeditsiyaga rahbarlik qilgan va 1961-yilda ikki jildli «Samarqand va Buxoro viloyatlarining qishloq xo'jaligi geografiyası» nomli monografiyasini nashr ettirgan.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlari rivojlanishining iqtisodiy geografik jihatlari turli hududlar misolida M.Yusupov Andijon viloyati), R.Xodiyev (Kitob-Shaxrisabz botig'i), A.Valixonov (Qo'qon vohasi), Ye.Umarov (Quyi Amudaryo), A.Ro'ziyev (Surxondaryo viloyati), B.Ishchanov (Xorazm vohasi), S.Saidkarimov (Zarafshonning o'ng qirg'og'i), T.Egamberdiyev (Keles vodiysi), K.Qurbanov (Mirzacho'l), B.Mirtursunov (Toshkent viloyatining tog'li tumanlari), S.Boqiev (Toshkent shahri atrofi), T.Jumayev (O'zbekiston tog'li hududlari) X.Xalilova (Samarqand shahri atrofi), Yu.Ahmadaliyev (Farg'ona vodiysi), R.Usmonov (Farg'ona shahri atrofi), A.Xolmirzayev (Farg'ona vodiysi), K.Xidiraliyev (Sirdaryo viloyati), M.Fayzullayev (Janubiy O'zbekiston), F.Rajabov (Qashqadaryo viloyati) kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslash, xususan, agrosanoat majmualari rivojlanishning iqtisodiy geografik muammolari bilan M.Maxmudova, Q.Allanov, X.Shosaidov, X.Abdunazarovlar shug'ullanishgan.

Maqolada O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirishga oid bo'lgan qarorlar va farmonlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida yaratilgan nazariy bilimlar, qishloq xo'jaligi geografiyasi bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy ishlanmalaridan foydalanilgan. Maqolaning uslubiy asosini kompleks yondoshuv tashkil etadi. Shuningdek, tizim-tarkib, tarixiy, statistik, matematik, hududiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lib, paxta, pilla, qorako'l terilari, uzum, meva, sabzavot va poliz ekinlarining ko'plab turlarini yetishtirish va eksport qilish hajmi bo'yicha jahon miyisosida yetakchi o'rinnlarni egallaydi. Mazkur tarmoq (rasmiy nomlanishi Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi) 2022-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston YalMning 23,4 % ta'minlab bergen. Respublika hududlari kesimida olganda, Navoiy va Toshkent viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahridan tashqari, barchasining YaHM tarkibida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ustuvor ahamiyatga ega. Bu borada eng yuqori ko'rsatkichlar Jizzax (51,9 %), Surxondaryo (47,7 %) va Xorazm (46 %) viloyatlarda, eng past ko'rsatkichlar esa Toshkent (22,1 %), Navoiy (13,9 %) viloyatlari va Toshkent shahrida (0,0 %) kuzatilgan [6].

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibida, 2022-yil yakunlari bo'yicha, dehqonchilikning ulushi 51,7 %, chorvachilikning ulushi esa 48,3 % tashkil qilgan. 2010-yilda bu ikki sohaning mamlakatning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi ulushi, mos ravishda, 58,7 % va 41,3 % ga, 2015-yilda – 55,6 % va 44,4 %, 2020-yilda esa – 49,5 % va 50,5 % ga teng bo'lgan. Demak, mamlakatimizda so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi tarmoqlar tarkibi o'zgarishining o'rtacha

tendensiyasi dehqonchilik ulushining pasayishi va, mos ravishda, chorvachilik salmog'ining o'sib borishidan iborat [5].

Qishloq xo'jaligi tog' zonasasi iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i bo'lib, O'zbekiston qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida chorvachilik mahsulotlari, don, meva va uzum va boshqa qator oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beruvchi va ishlab chiqaruvchi sifatida alohida o'rinni tutadi. Tog' qishloq xo'jaligining ahamiyati doimiy oshib bormoqda. Sanoatning rivojlanmaganligi ma'lum darajada qishloq xo'jaligining nisbiy ahamiyatini oshiradi. Qishloq xo'jaligining tarkibi tuzilmasida tog' zonasida chorvachilik ustunlik qiladi, uning ulushiga tog' qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 4/5 qismi to'g'ri keladi.

Tog' zonasasi qishloq xo'jaligining tekislik mintaqalariga xos bo'lmagan ko'pgina o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, parchalanish va mayda kontur shakllari, qishloq xo'jaligi yerlarining quramaligi (mozaikasi), ayniqsa haydaladigan yerkarning ko'plab mayda va kichik, alohida ajralgan, noto'g'ri shakldagi, ba'zan hatto g'alati tashqi qiyofadagi kichik maydonlardan tarkib topishi, ularning balandlik, ekspozitsiya, yonbag'irlar tikligi, mikroiqlim, tuproq, o'simlik qoplami bo'yicha xilma-xilligi va boshqalardir.

Hozirgi vaqtda respublikaning tog' zonasida qishloq xo'jaligining quyidagi asosiy ishlab chiqarish turlari (korxonalar) shakllandi va rivojlanmoqda [2;4]:

1) Toshkent poytaxt viloyati tog' zonasasi shahar atrofi tog' xo'jaliklarining sabzavot-kartoshka, go'sht-sut va bog'dorchilik-uzumchilik majmuasi. Ular past tog' va o'rta tog' zonalari salohiyati imkoniyatlaridan foydalanadilar;

2) uchta balandlik zonalari – past tog', o'rta tog' va baland tog' yaylovlardan foydalanishga asoslanib rivojlanayotgan go'sht-yog' yoki go'sht-jun yo'nalishidagi qo'ychilik xo'jaliklari. Go'sht-yog' zotidagi Hisor qo'ylari Surxondaryo viloyati tog' zonasida (Boysun, Denov, Sariosiyo, Uzun tumanlari), jaydari go'sht-yog' qo'y zotlari Qashqadaryo viloyati va Farg'ona vodiysi viloyatlari, go'sht-jun zotli qo'ylar Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari tog' zonalarda boqiladi;

3) Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Navoiy va Jizzax viloyatlari tog' zonasining yarim cho'l tog'oldi-past tog' va o'rta tog'ning qurg'oqchil-dasht yaylovlardan foydalanishga asoslangan qorako'lchilik xo'jaliklari;

4) haydaladigan lalmi yerkarning yarim cho'l tog'oldi-past tog' va o'rta tog'ning qurg'oqchil-dasht yaylovlardan foydalanishga asoslangan don-chorvachilik xo'jaliklari. Ular Qashqadaryo va Jizzax viloyati tog' zonasida keng tarqalgan, mazkur yo'nalishidagi ayrim xo'jaliklar Toshkent va Samarqand viloyati tog'larida ham mavjud;

5) barcha tog'li viloyatlarning tog'oldi-past tog' va tog' zonalarining sug'oriladigan, shartli sug'oriladigan, lalmi yerkarning yarim cho'l tog'oldi-past tog' va o'rta tog'ning qurg'oqchil-dasht yaylovlardan foydalanishga asoslangan bog'dorchilik-uzumchilik xo'jaliklari. Tog' bog'dorchilik va uzumchilik Toshkent, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari tog' zonalarda, shuningdek, Farg'ona vodiysi viloyatlari, ayniqsa Namangan viloyati adirlarida eng ko'p rivojlangan;

6) tor ixtisoslashishga ega bo'lgan tog' xo'jaliklari: dorivor o'simlikchilik (Toshkent, Jizzax, Namangan, Surxondaryo viloyatlari), tamakchilik (Samarqand viloyati), pillachilik (Toshkent viloyati), parrandachilik (Toshkent, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlari), yilqichilik (Toshkent, Jizzax, Qashqadaryo viloyatlari), asalarichilik (barcha viloyatlari), yem-xashak-ozuqa xo'jaliklari (barcha viloyatlari);

7) tekislik zonasining sug'oriladigan yerkarning yarim cho'l tog'oldi-past tog' va o'rta tog'ning qurg'oqchil-dasht yaylovlardan foydalanishga asoslangan bog'dorchilik-uzumchilik xo'jaliklari. Bunday xo'jaliklar barcha tekislik-tog' viloyatlarda, ayniqsa Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Namangan viloyatlarda ko'p;

8) shaxsiy yordamchi tomorqa va dehqon (oilaviy), fermer xo'jaliklari (yollanma mehnatdan foydalanmaydigan). Ular o'zining oilasi kuchlariga tayanib va tog' zonasining sug'oriladigan, lalmi, yaylov yerkarning yarim cho'l tog'oldi-past tog' va o'rta tog'ning qurg'oqchil-dasht yaylovlardan foydalanishga asoslangan bog'dorchilik-uzumchilik xo'jaliklari. Ushbu xo'jalik turi tovar ishlab chiqaruvchilar orasida eng ko'p sonli hisoblanadi. Ularning ahamiyati va rolining oshishi mustaqillikning yangi agrar siyosatining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.

Tog'larning yer fondi sug'oriladigan tekislik zonasiga nisbatan qishloq xo'jaligi yerkarning kam ulushi bilan ajralib turadi, ularning tarkibida haydaladigan yer maydonlari va ko'p yillik daraxtzorlar juda kam, yaylovlari esa katta ulushga ega, shuningdek, tog'larda o'rmonlar maydoni kam, qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan yerkarning maydoni va ulushi katta.

Tog'oldi va past tog'larda tog' zonasining haydaladigan, sug'oriladigan va lalmi yerkari va yaylovlarining asosiy maydoni to'plangan. O'rta tog'larda o'rmon va yaylovlar, baland tog'larda esa yaylovlar va qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlar katta ulushga ega. Bu yerda yerkarning katta qismi eroziya nuqtai nazaridan xavfli bo'lib, landshaftga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi yukini cheklashni talab qiladi.

Bizning fikrimizcha, tog'li hududlar qishloq xo'jaligi salohiyati va tarmoq tuzilmasini iqtisodiy-geografik tadqiq etishda o'zaro bog'liqlikning ikki yo'nalishi – tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalar yig'indisini tahlil qilishga asoslangan kompleks-mintaqaqaviy yondashuvdan keng foydalanish zarur. Bular ishlab chiqarish va tabiat muhofazasidan maksimal samara olish maqsadlarida turli tarmoqlar va hududlar manfaatlarini birlashtirish yo'li bilan barqaror rivojlanishning tarmoq va integral-moslashgan yo'nalishlarini o'zaro muvofiqlashtirishni amalga oshirishni sezilarli darajada osonlashtiradi.

Tog' qishloq xo'jaligida g'alla va yem-xashak ekinlari katta o'rinni egallaydi. Biroq sug'oriladigan yerkarda mahsuldarlik hali ham past. O'tacha hosildorlik, masalan, ko'plab tog' xo'jaliklarida g'alladan 15-20 sentner, kartoshkadan 60-80 sentner, sabzavotlardan 150-170 sentnerni tashkil qiladi, xolos.

O'zbekistonda sug'oriladigan tog' dehqonchiligining eng baland yuqori chegarasi 2500 metrga yetadi (Surxondaryo viloyati Hisor tog'larda). Tog' sug'oriladigan dehqonchiligi tarqalishining yuqori va pastki chegaralari o'tasidagi farq 2000-2200 metrga yetadi, bu nafaqat xilma-xil mahsulotlarning ko'p turlarini ishlab chiqarishga, balki ularni ishlab chiqarish muddatlarini uzaytirishga (deyarli ikki marta) imkon beradi, bular iste'molchilar talabini qondirish uchun alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Tog'larda sabzavot, meva va boshqa mahsulotlarni mavsumlar bo'yicha yetishtirish farqlari bo'yicha balandlik zonal konveyer usulida ishlab chiqarishni tashkil etish bozor sharoitida tog' zonasini iqtisodiyoti barqarorligi darajasini oshiradi. Biroq amalda bu usul, afsuski, qo'llanilmaydi.

Ta'kidlash joizki, tog' bog'dorchiligi va uzumchiligi tog' qishloq xo'jaligining integral-moslashgan turi sifatida o'zining biologik va geografik xususiyatlari ko'ra, tog' muhitining o'ziga xos, tog'larda turli tabiiy hodisalar sodir bo'lishi kabilarga ko'p darajada moslashgan. Shuningdek, tog' bog'dorchiligi va uzumchiligi tog' qishloq xo'jaligining eng daromadli tarmoqlaridan biridir. Shuni ham e'tirof etish muhimki, tog' bog'lari muhim gidrologik va eroziyaga qarshi va boshqa tabiat muhofazasi funksiyalarini bajaradigan eng barqaror qoplama turi ham hisoblanadi. Ular tog' archalari kabi tog' tabiatini asrovchi muhim omildir. Shu bilan birga, tog'larda qulay sharoitlar bilan bir qatorda meva va uzum yetishtirishda bir qator noqulay omillar ham mavjud. Qiyali va parchalangan relyef ko'pincha bog' maydonlarining kattaligini cheklaydi, sug'orish tizimlari qurilishini qiyinlashtiradi, tuproqqa ishlov berishni, o'zi oqadigan sug'orish usulidan foydalanishni va hokazolarni qiyinlashtiradi.

Tog'li hududlarda bog'dorchilik va uzumchilikning katta areallari Toshkent va Samarcand shaharlari ta'sir zonasida shakllangan. Bularga Bo'stonliq (urug'li mevalar, yong'oq va iste'mol qilinadigan uzum ishlab chiqarish) va Parkent (uzumchilik, vinochilik, urug'li mevalar), Bulung'ur va Urgut (uzumchilik, mayiz ishlab chiqarish, urug'li mevalar, danakli quruq mevalar va shu kabilalar) zonalari kiradi. Bu yerda bog' va uzumzorlar maydonining 55,8 % va tog' tumanlari ishlab chiqaradigan mevalar va uzumlarning 2/3 qismidan ko'prog'i to'plangan. Yana bir muhim areal – Baxmal va G'allaorol zonalari (tovar va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan bog'dorchilik va uzumchilik) hisoblanadi. Tekislik-tog' tumanlari orasida tovar bog'dorchiligi va uzumchiligi rivojlanishida Pop, Chust, Kattaqo'rg'on, Xatirchi, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Denov, Oltinsoy, Sariosiyo, Uzun tog' zonalari ajratib turadi.

Tog' bog'dorchiligi va uzumchiliginin yanada rivojlantirish O'zbekistonning oziq-ovqat salohiyati va eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ilg'or qishloq xo'jaligi texnologiyasini qo'llash, yangi navlarni keng joriy etish, 1 hektar maydonдан 80-100 va undan ortiq sentnergacha meva va uzum olishga, ya'ni ishlab chiqarish hajmini 2-3 baravar oshirishga imkon beradi.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligining chorvachilik, xususan, tog'-yaylov chorvachiligi ikkita asosiy omil ta'sirida rivojlanadi. Birinchisi, ozuqa bazasining mavjudligi, ikkinchisi, aholi sonining ortib borishi barobarida chorvachilik mahsulotlariiga bo'lgan ehtiyojning hajmi.

Yaylov xo'jaligi mahsuldarligini qo'llab-quvvatlash va oshirishga asoslangan bo'lishi va har tomonlama intensifikasiyalashdirish va melioratsiyalash asosida dehqonchilik namunasi bo'yicha uzuksiz to'liq qayta qurilishi va tashkil etilishi kerak. Mavjud salohiyatni ro'yobga chiqarish uchun

ilmiy asosda yaylovlardan barqaror foydalanishni tashkil etish, hosilni va o'simliklarning ozuqa tarkibini saqlab qolish zarur. Ayni bir vaqtda yaylovlarning hosildorligi va ozuqa sig'imini yanada oshirish uchun sharoitlar yaratish lozim. Buning uchun quyidagi o'zaro bog'liq tadbirlar majmuasini amalga oshirishni maxsus rejalashtirish talab etiladi [4]:

1) chorvalarni haydar boqish tizimini, yaylovarda pichan va silosni tegishli mavsumga, chorva mollari turlariga, ozuqa zaxiralariga va balandlik zonalari sharoitlariga mos ravishda tashkil etishni joriy etish;

2) yaylov-meliorativ, madaniy-texnik va gidrotexnik tadbirlarni amalga oshirish (sug'orish, suv bilan ta'minlash, yovvoyi holda o'sadigan yem-xashak o'simliklarining urug'ini ko'paytirish, terrasalarni barpo etish, o'nqir-cho'nqir tepaliklarni tekislash va shu kabilar);

3) yaylovlarni tubdan yaxshilash (madaniy yaylov va pichanzorlarni barpo etish);

4) yaylovlarni boshqarishni oqilona hududiy tashkil etish (dehqon, fermer xo'jaliklariga yaylovlarni uzoq muddatli ijaraga berish, yaylovlarni uchastkalarga ajratish va ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish tartibini belgilash, yozgi yaylovn, qishlovlarini (qo'ton va fermalar) joylashtirish, chorvani haydash yo'llarini qurish, suv inshootlarini qurish va tartibga solish, chorvadorlarga xizmat ko'rsatadigan kooperativ yaylov markazlari va kombinatlarini tashkil etish, ilmiy yutuqlar va ilg'or tajribalarni ishlab chiqarishga joriy etish).

Yuqorida aytilgan chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirish ozuqa sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi va yaylovlar hosildorligi va ozuqaviy sig'imini 2-3 baravar (yoki undan ko'p) oshirish, mos ravishda chorva mollari sonini va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishga imkon beradi. Bunda nafaqat yaylov xo'jaligini rivojlantirish afzalliklarini, balki uning tog' muhitni holatiga, avvalambor, yer usti suv oqimi va tekislik zonasini suv ta'minotiga salbiy ta'sirini ham hisobga olish kerak. Shu munosabat bilan tog' yonbag'irlarida chorva mollarini haddan tashqari ko'p boqishning zararini, ularning yaylovlarining o't-o'lansiz yalang'ochlanib qolishiga va halokatli eroziyaga olib kelishini ham hisobga olish kerak. Muammoning yechimi tog' zonasini yer fondi tarkibidagi yaylovlarining maqbul o'lchamlarini ilmiy asoslangan holda aniqlashdan iborat bo'lib, ular haqiqatan ham zarur va samarali va ekologik jihatdan yaylovlardan xavfsiz foydalanishga imkon berishi kerak.

Rivojlangan mamlakatlarning tog' mintaqalari tajribasi shuni ko'rsatadiki, chorvachilikni chorva mollari sonini ko'paytirish asosida emas, balki uni intensifikatsiyalash yo'nalishida rivojlantirish iqtisodiy va ayniqsa ekologik jihatdan foydalni hisoblanadi. Texnologik nuqtai nazardan muammoning yechimi – bu ham dehqonchilik, ham yaylov ozuqalarini yashil, dag'al, sersuv yem-xashak bilan to'yintirish hisoblanadi. Geografik nuqtai nazardan, yechim tog' yaylovlarini yem-xashak yetishtirishning asosiga aylantirishdan iborat bo'ladi. Faqat yaylov xo'jaligini intensifikatsiyalashtirishgina chorva mahsulotlarini ishlab chiqarishni chuqurlashtirish va kengaytirishning asosi bo'lishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, tog' qishloq xo'jaligida ixtisoslashish yetarlicha rivojlanmagan, u har doim ham ilmiy asoslangan deb bo'lmaydi. Hozirgi paytda tog' qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ixtisoslashgan haqiqiy bozori mavjud emas, shu sababdan bozor omillari hududiy balandlik zonal ixtisoslashishning shakllanishi va chuqurlashishiga yetarli ta'sir ko'rsatmayapti. Bundan tashqari fermer xo'jaliklari, tumanlarning o'zlarini o'zlar oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga intilishi qulay tabiiy va iqtisodiy sharoitlar mavjud bo'lmaganda ham ma'lum ishlab chiqarishni majburan rivojlantirishga olib keladi. Bozorga asoslangan ixtisoslashuvni rivojlantirish juda uzoq jarayon, shuning uchun davlat uni tezlashtirish uchun iqtisodiy usullardan (kreditlar, subsidiyalar va shu kabilar) foydalanishi kerak.

XULOSA

Tog'li hududlar qishloq xo'jaligi geografiyasining tafsiflangan xususiyatlari uning barqaror rivojlanishi, uni hududiy tashkil etishni takomillashtirish va strategiyasi bo'yicha bir qator xulosalar chiqarishga imkon beradi:

1. Barqaror rivojlanishga erishish, tog' sharoitiga moslashish, kamchiliklarni bartaraf etish, tog' tumanlari va xo'jaliklariga xos bo'lgan beqaror rivojlanish tendensiyalarini o'zgartirish uchun tekislik-tog' xo'jaliklarining qo'shimcha tog' uchastkali maydonlari asosida yangi turdag'i mustaqil xo'jaliklarini fermer, jamoaviy, individual xo'jaliklar va shu kabilarni tashkil etish zarur.

2. Tog' qishloq xo'jaligining tog' tabiatiga moslashuvchanligini va ko'p funksionalligini kuchaytirish uchun uning ko'p xillagini, intensifikatsiyalashishini, integratsiyalashishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozim. Ushbu maqsadlar uchun tumanlarning alohida xo'jaliklari sharoitlariga moslashtirilgan tog' qishloq xo'jaligini balandlik zonal yuritishning aniq tizimlarini ishlab

chiqish va amaliyotga joriy etish, aholi ehtiyojlari, bozor talabi, tog' hududlarini muhofaza qilish talablarini hisobga olgan holda, tog' qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqish (ishlab chiqarish va tabiat muhofazasi tadbirlarini o'zaro bog'lash), tekislik mintaqalariga xos bo'lgan eski andozalar, xo'jalik yuritish tizimlarining bir xilligidan voz kechish;

3. Faqat ichki yoki tashqi bozorda yaxshi sotish istiqbollariga ega bo'lgan, raqobatbardosh yutuqlarning oshishiga imkon beradigan, transport xarajatlarini kamaytiradigan, yuqori sifat, yuqori qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga (mevalar, uzum, pista yong'oq, quritilgan mevalar, dorivor o'simliklar, asal, chorvachilik mahsulotlari va boshqalar), har bir mintaqaga xos mahsulotlar ishlab chiqaradigan biznesni qo'llab-quvvatlash sohalariga ustuvor ahamiyat berish kerak. Shu bilan birga, tog' qishloq xo'jaligi nafaqat tog' zonasni, balki butun respublika aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammolarini hal qilishga katta hissa qo'shishi kerak.

O'zbekistonda agrar islohotlar mintaqaviy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensifikatsiyalash asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini davlatning tartibga solishi elementlari bilan, talab va taklifning erkin o'zaro ta'sirida barpo etishni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida", "Yer Kodeksi" yangi qonunlari ham shu maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan. Shu munosabat bilan tog' qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarini har tomonlama hisobga olish va uni iste'mol talablari tuzilmasiga moslashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish ayniqsa muhimdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni.
2. Джумаев Т. Перспективы устойчивого развития горных районов Узбекистана. Изв. РАН. Сер геогр. 2002, №2, с 104-106.
3. Daljanov K.O., Utarbaeva K.A. Qoraqalpog'istonda dehqonchilikni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari //O'zbekiston geografiya jamiyatি, 53-jild, 2018 yil.Toshkent, 111-113 b.
4. Jumayev T.J. Bizning ulug'vor tog'larimiz. O'zbekiston tog' zonasining barqaror rivojlanishi. Nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent, 2021, 700 b.
5. Qurbanov Sh.B., Fedorko V.N. O'zbekiston geografiyasi (II qism. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). Darslik. – Toshkent: Yangi Chirchiq prints, 2024. – 382 b.
6. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy veb sayti).